

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL QILISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Lazizaxon Haydaraliyeva Xamdamjon qizi

Qòqon davlat universiteti Sa'natshunoslik va sport fakulteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yònalishi 01/24-guruh talabasi

### Annotatsiya:

Tasviriy san'at darslarini tashkil qilishda o'quvchilarni yosh, bilim va saviya bo'yicha kategoriyalashtirib darslarni tashkil qilish va interfaol metodlardan foydalangan o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarni to'laqonli bajarishda innovatsion yondashishning o'ziga xos tomonlari.

**Kalit so'zlar:** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, metodologiya, metodika, pedagogik texnologiya, inter

Hozirda ta'lim muassasalarida dars o'tishning turli yangi loyihalari orqali sinov tajriba sifatida nazariy amaliy dars tashkil qilish usullari qo'llanilmoqda. Tasviriy san'atda olib borilayotgan ishlarning hajmi va turlari xam nihoyatda xilam xilligi bilan boshqa fanlardan ko'ra qo'shimcha oddiy va murakkab jarayonlarni rassom pedagogdan talab qilib turishi bilan farqlanadi. Ma'lumki, yangilanish - bu butun tizimning muayyan qonuniyatlar asosida ichki o'zgarishidir. Pedagogik yangilanish deganda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan global o'zgarish va rivojlanishning va natijasini yaxshilashga yo'naltiriladigan pedagogik tizim ichida sodir bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar majmuasi nazarda tutiladi.

Yangi zamon bilan uyg'un pedagogik faoliyat butun pedagogik tizimni sifat jihatidan takomillashtirishda yuqori darajadagi natijalarga erishuvni kafolatlashga xizmat qiladigan yangi g'oyalar, jarayonlar, vositalar, usul, uslublarning yaxlit holatdagi ifodalanishidir. Har bir fanda bo'lgani kabi tasviriy san'at fanining ham o'z obekti, predmeti, vazifasi va o'rganadigan muommosi mavjud. Manashu jarayonlarni qamrab olish o'qitish va fanni rivojlantirish maqsadida malakali kadrlarni tayyorlash, amalda qo'llaniladigan taqdidotlarni yaratish har bir fanning asosiy bosh maqsadlaridan biridir. Buning uchun yechim metodologiya ya'ni o'rganilayotgan muommoni bartaraf qilish usullari, metodlar yig'indisi demakdir. Bu jarayon esa interfaol metodlar, innovatsion ko'z qarashlarni o'zida mujassamlashtiradi. Dars jarayonini samarali tashkil qilish, har bir mavzuga alohida revolyutsion yondashgan xolda interfaol usullardan foydalanib dars o'tish, pedagogic mahoratni har bir pedagog o'zida mujassamlashtirishi, uzliksiz ta'limda innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish bugungi kun qolaversa "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning bosh maqsadidir! Umumiy o'rta ta'limning asosiy maqsadi ham ilg'or pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini

yaratish, yetuk kadrlarni yetishtirish. Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitish va o'rgatishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning yuqori darajadagi o'zlashtirish qobiyatining o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Interfaol ta'lim metodlarining turlari juda ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya berish, pedagogik jarayonning deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun aynan moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun ayrimlarini alohida ajratib olib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarniamalga oshirish uchun to'g'ri tanlash va amalda qo'llash borasida. Malumki, ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-o'qituvchi bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va konikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik interfaol metodlardan, innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish konikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at dars jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va Internetdan tarmoqlaridan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarning faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Tasviriy san'at taraqqiyoti natijasi tufayli O'zbekistonda shakllangan bugungi zamonaviy ilg'or an'analar hayotimizga allaqachon kirib borgan bo'lib, u keng ko'lamda taraqqiy etmoqda. Busiz odamlarning hozirgi ehtiyojini, ayniqsa yoshlarimizda, san'at va ma'naviyatga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarni qondirib bo'lmaydi. Darhaqiqat, shunday ekan badiiy ta'lim va tarbiyani shakllantirishda yana bir qator vazifalar dolzarbligini xam ko'ramiz.

Birinchiidan, jamiyatimizdagi hozirgi taraqqiyot darajasi yuksaltirganligi tufayli o'tmishning turli san'at sirlariga va dunyoqarashlariga nisbatan adolatli munosabat, to'g'ri va tubdan ilmiy yondashishlar vujudga keldi. Shunday sharoitda tasviriy san'at va uning tarixidagi namunalari yoshlarni xar tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ilm-fan, san'at sirlarini xar jihatdan o'rganishga da'vat qiladi.

Ikkinchiidan, tasviriy san'at asarlarining badiiy qimmatini tahlil qila bilish va yoshlarda badiiy idrok qilish bilimini, shuningdek mukammal xarakterga ega bo'lgan san'at asarlarini ajrata olish saviyasiga ega bo'la olishlari uchun ta'lim mazmunini takomillashtirib borishni xam taqozo etmoqda.

Uchinchiidan, har qanday san'at asari ijtimoiy fikr mahsuli bo'lib, u asosan o'zida insoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bo'lajak rassom-pedagoglardagi bilim va tushunchalar saviyasini ana shu nuqtai nazardan to'la shakllantirishga erishish xam dolzarb masala. Ma'lumki, xar qanday san'at turi badiiy yetuklik maktablarining qonuniyatlariga ega bo'ladi. Ana shunday qonuniyatlar mavjudligini o'zi san'at sirlari barhayotligini bosh omilidir.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ro'yobga chiqishga yordamlashadi. Shuni xam alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar uchun xam muhimdir.

Shuning uchun ham ta'lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy tafakkurni o'stirishda tasviriy san'at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o'rinni egallaydi. Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir. Shu sababli ham interfaol tarzda o'rgatish metodlari -pedagogikada qabul qilingan eng ilg'or metod sifatida ta'riflanadi. Tasviriy san'at metodlari faoliyatning umumiy xarakteriga qarab klassifikatsiyalanadi ya'ni: o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish. Bunga o'quvchilarning ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, induktiv va deduktiv, reproduktiv va muammoli-izlanuvchan hamda mustaqil ishlari kiradi; ta'lim berishning o'quv faoliyatini stimullashtirish (qiziqtirish va rag'batlantirish) va motivatsiyalash (maqsadga yo'naltirish) metodlari. O'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va motivlashtirish; burch va javobgarlikni stimullashtirish motivlashtirish; nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlar.

### **Foydalangan adabiyotlar royxati:**

1. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom.-T., 2001.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo»,2006.
3. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. -T., «Aloqachi»,

4. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. -T., «Gafur Gulom», 2004.
5. Nabiyev M.N. Rangshunoslik. T., «Oqituvchi», 1995
6. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012

